









I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 7 843,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022-yildagi narxlarga nisbatan 114,2 % ni tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,0 % ga yetdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish

(yanvar-mart oylarida)

	Ko'rsatkichlar	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2022- yil	2023- yil	
	I. YAHM	6 513,0	7 843,2	105,4
	shu jumladan:			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 257,4	7 623,0	105,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	255,6	220,2	111,1
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 257,4	7 623,0	105,2
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 264,0	1 536,5	103,9
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 625,5	2 023,9	104,5
	sanoat	1 128,4	1 458,7	104,3
	qurilish	497,1	565,2	104,9
	Xizmatlar	3 367,9	4 062,6	106,0
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	650,7	791,3	107,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	438,3	551,2	112,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 278,9	2 720,1	104,3


Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi
(% da)

2022- yil yanvar-mart



Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi (% da)


2023- yil yanvar-mart



Yalpi hududiy mahsulotda 2023- yil yanvar-mart oylari davomida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 82 277,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, shundan Namangan viloyatida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 4 916,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida Oʻzbekiston Respublikasida 67 491,8 mlrd. soʻmni, Namangan viloyatida esa 4 045,8 mlrd. soʻmni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotda 2023- yil yanvar-mart oylarida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmdagi ulushi 43,6 % (2022- yil yanvar-mart 44,5 %) ni tashkil etgan boʻlsa, Namangan viloyatining ulushi 64,5 % (2022- yil yanvar-mart 64,7 %) ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 64,5 %ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-mart oyida – 64,7 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

Aholi jon boshiga nisbatan Yalpi hududiy mahsulot hajmi
(ming so'm)

Ko'rsatkichlar	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart
Yanvar-mart	2 216,9	2 610,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish
(2023- yil yanvar-mart)

Ko'rsatkichlar	mlrd. so'm		Respublikada tutgan ulushi, % da
	O'zbekiston Respublikasi	Namangan viloyati	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	198 483,5	7 843,2	4,0
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	188 545,3	7 623,0	4,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	9 938,1	220,2	2,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	188 545,3	7 623,0	4,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23 465,2	1 536,5	6,5
Sanoat (qurilish sohasini qo'shgan holda)	64 924,3	2 023,9	3,1
sanoat	53 143,4	1 458,7	2,7
qurilish	11 780,9	565,2	4,8
Xizmatlar	100 155,9	4 062,6	4,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14 947,8	791,3	5,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	16 052,6	551,2	3,4
boshqa xizmatlar	69 155,4	2 720,1	3,9

YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,9 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 20,2 %), sanoatda – 104,3 % (19,1 %), qurilishda – 104,9 % (7,4 %), xizmatlar sohasida – 106,0 % ni (53,3 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,2 % (10,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa tarmog'ida 112,9 % (7,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,3 % dan (35,7 %) iborat bo'ldi.

2022-2023- yil yanvar-martda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)

